

O‘zbekiston Respublikasi  
aksiyadorlik tijorat Xalq banki  
Boshqaruvining  
2024-yil 15-noyabrdagi  
131/1-sonli qarori bilan  
“MA’QULLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi  
aksiyadorlik tijorat Xalq banki  
Kuzatuv kengashining  
2024-yil 25-noyabrdagi  
23-sonli majlis bayoni bilan  
“TASDIQLANGAN”

**O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki boshqaruvi a’zolari va  
muayyan tarkibiy bo‘linmalari rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni  
tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-maydagi “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli farmoni, 2023-yil 24-martdagi “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-101-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (Adliya vazirligida 30.06.2020-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3252), O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining (keyingi o‘rinlarda – Bank) ustavi va “Kadrlarni boshqarish siyosati”ga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, Bank boshqaruvi a’zolari va muayyan tarkibiy bo‘linmalari rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tayinlash uchun tanlov o‘tkazish, nomzodlarni tanlab olish hamda lavozimga tavsiya etish tartiblarini belgilaydi.

**1-§. Umumiy qoidalar**

**1.** Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**Bank** – O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki;

**Nizom** – O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki boshqaruvi a’zolari va muayyan tarkibiy bo‘linmalari rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi bankning ichki normativ-huquqiy hujjati;

**Kuzatuv kengashi huzuridagi Tayinlash qo‘mitasi** – Bank Kuzatuv kengashi huzurida Bank aksiyadorlari va Kuzatuv kengashining tegishli hujjatlariga asosan tashkil etilgan tarkibiy tuzilma;

**vakant lavozim** – Bankning shtatlar jadvaliga asosan mavjud bo‘lgan, yangi xodimni ishga qabul qilish nazarda tutilgan bo‘sh ish o‘rni;

**tanlov jarayoni** – Bank boshqaruv a’zolari va rahbarlik lavozimlariga tayinlash uchun o‘tkaziladigan nomzodlarning bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazishga qaratilgan jarayon;

**Bankning rahbarlik lavozimlari** - Bank boshqaruv a’zolari, bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlariga oid qonunchilik talablariga asosan muhim ahamiyatga ega lavozimlarda faoliyat yurituvchi muayyan tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari;

**Komissiya** – tarkibi boshqaruv raisining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan, Bank Kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolarini, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarini baholash komissiyasi;

**nomzodlarni izlash vositalari** – ish beruvchi nomidan ish beruvchining talablariga to‘liq javob beradigan yuqori malakali va tajribali xodimlarni topish imkonini beruvchi axborot kommunikatsiya vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda boshqa shu kabilar manbalar yig‘indisi;

**vakolatli davlat organlari** – qonunchilik hujjatlari asosida davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) huquqlari va funksiyalarini amalga oshiruvchi, banklar faoliyatini nazorat qilish, boshqarishda ishtirok etish vakolatiga ega davlat organlari;

**short list** – rahbarlik lavozimlari uchun hujjat taqdim etgan, belgilangan talablarga mos keluvchi nomzodlarning qisqacha ro‘yxati.

2. Mazkur Nizom Bank boshqaruvi a‘zolari va Bankning muhim ahamiyatga ega xodimlariga nisbatan tatbiq etiladi va Nizomning maqsadi bo‘sh (vakant) lavozimlarga belgilanadigan mezonlarga asosan yetarli tajribaga, malaka va ko‘nikmaga ega nomzodlarni shaffof tarzda tanlov asosida saralab olish hisoblanadi.

3. Bank Bank boshqaruvi a‘zolari va Bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari (keyingi o‘rinlarda - Bankning rahbarlik lavozimlari deb yuritiladi) tarkibiga nomzodlarni saralash va tanlab olish tegishli rahbarlarning vakolatlarini muddatidan avval tugatilishi natijasida yuzaga keladigan bo‘sh (vakant) rahbarlik lavozimlari yoki mavjud bo‘sh (vakant) rahbarlik lavozimlari uchun amalga oshiriladi.

4. Tanlov asosida saralab olish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

**shaffoflik** – nomzodlarni izlash manbalari va (yoki) ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarda tegishli e‘lonlar, bo‘sh o‘rinlar, saralash siyosati, tartiblari, mezonlari va saralash jarayonining natijalari haqida ma‘lumotlarni chop etish;

**tenglik** – saralashda ishtirok etadigan barcha nomzodlarga bir xil shart-sharoitlar yaratish;

**raqobat** – saralash jarayoni ochiq va to‘g‘ri raqobatga asoslangan bo‘lishi;

**mustaqillik** – saralash jarayoni har qanday siyosiy va ma‘muriy aralashuv yoki boshqa tashqi ta’sirlardan holi va mustaqil amalga oshirish.

## **2-§. Nomzodlarni saralash, tanlab olish tartibi va bosqichlari**

5. Bankning rahbarlik lavozimlariga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash, ularni baholash tartibi ushbu Nizomga **1-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi vakolatli davlat organining ruxsatiga ega bo‘lgan chet ellik menejerlar ham nomzod sifatida ishtirok etishi mumkin.

6. Bankning rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va ularni baholash tartibi boshqaruv raisining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan, Bankning Kuzatuv kengashi va boshqaruvi a‘zolarini, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarini baholash komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) tomonidan amalga oshiriladi.

7. Komissiya tarkibi komissiya raisi, raisi o‘rinbosari, a‘zolar va kotibdan iborat tarkibda kamida 5 nafar (undan ko‘p bo‘lganda toq son)dan iborat bo‘ladi hamda Komissiya tarkibiga boshqaruv raisi va/yoki boshqaruv raisi o‘rinbosari, Xodimlarni boshqarish, Yuridik, Komplayens, Korporativ boshqaruv va boshqa tegishli Bank bo‘linmalari hamda zaruriyatga ko‘ra xalqaro moliya institutlari ekspertlari, konsalting kompaniyalar ilmiy xodimlari hamda ekspertlari, shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalarining faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib, soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

**8.** Nomzodlarni ko'rib chiqish jarayonida Komissiya a'zolarining uchdan ikki qismi qatnashganda vakolatli hisoblanadi.

Nomzodlarni ko'rib chiqish jarayonida a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holatda, Komissiya raisiningavozi hal qiluvchi hisoblanadi, shu bilan birga, Komissiya raisi uzrli sabablarga ko'ra jarayonda ishtirok etmagan taqdirda, raisning vakolatlari rais o'rinbosariga o'tadi.

Komissiya kotibi bankning Xodimlarni boshqarish departamenti xodimlari orasidan tayinlanadi va ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi.

**9.** Nomzodlarni saralashga oid Komissiya xulosasi bayonnoma tarzida rasmiylashtiriladi va Xodimlarni boshqarish departamentida saqlanadi.

**10.** Bankning vakant bo'lgan rahbarlik lavozimlari uchun nomzodlarni saralash tanlov shaklida, **to'rt bosqichda** amalga oshiriladi:

**birinchi bosqich** – nomzodlar to'g'risidagi hujjatlarni yig'ish, tahlil qilish va Komissiyaga ko'rib chiqish uchun kiritish;

**ikkinchi bosqich** – Komissiya tomonidan nomzodning qo'yilgan talablarga muvofiqligini ko'rib chiqish va baholash. Baholash natijalarini Kuzatuv kengashi huzuridagi Tayinlash qo'mitasiga (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) kiritish;

**uchinchi bosqich** – Qo'mitada nomzodning qo'yilgan talablarga muvofiqligi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlari (zarurat bo'lsa suhbat) asosida aniqlash va ma'qul nomzodni tasdiqlash maqsadida Kuzatuv kengashiga tavsiya etish;

**to'rtinchi bosqich** – Kuzatuv kengashi Qo'mita tavsiyalariga muvofiq ma'qul nomzodni lavozimiga tasdiqlash va nomzodni lavozimiga kirishishidan avval Markaziy bank bilan kelishib olish to'g'risida qaror qabul qiladi.

**11.** Tanlovning **birinchi bosqichda** Komissiya tomonidan nomzodlarga qo'yilgan malaka talablari tasdiqlanadi, vakant lavozim uchun tanlov o'tkazish maqsadida nomzodlarni izlash vositalari orqali e'lon beriladi, nomzodlarning hujjatlari yig'iladi va yig'ilgan hujjatlar Komissiya kotibi tomonidan Komissiya ixtiyoriga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

Hujjatlarni yig'ish va ko'rib chiqish nomzodlar tomonidan taqdim etiladigan, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

**12.** Jinsi, tili, millati, fuqaroligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar har qanday shaxs saralashda belgilangan tartibda ishtirok etish uchun ariza topshirish huquqiga ega, sud qarorlari bilan mansab lavozimlarni egallashi cheklangan shaxslar bundan mustasno.

**13.** Nomzodlarni izlash, ma'lumotlarini shakllantirish, Komissiya faoliyatiga oid hujjatlarni rasmiylashtirish uchun Komissiya a'zolari, aloqador tashkilotlar va Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari bilan hamkorlikda Komissiya kotibi mas'ul hisoblanadi.

**14.** Nomzodlarni izlash quyidagi usullardan birini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin:

nomzodlarni izlash manbalari orqali (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va ommaviy axborot vositalari orqali e'lonlar berish);

nomzodlarni izlab topishga ixtisoslashgan konsalting va (yoki) yuqori malakali mutaxassislarni va rahbar kadrlarni qidirish va yollash bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilotlarni jalb etish orqali yoki boshqa samarali uslublar asosida.

**15.** Nomzodlar Komissiyaga tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab e'londa belgilangan talablar doirasida o'zi haqidagi barcha hujjat va ma'lumotlarni yopiq (maxsus) konvertlarda taqdim etadi.

Tanlov shartlari, nomzodlarga qo'yilgan talablar, nomzodlar tomonidan taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjat va ma'lumotlar ro'yxati tanlov o'tkazish haqidagi e'lonlarda ko'rsatilishi lozim.

**16.** Tanlovda ishtirok etish uchun bir nafar nomzodning arizasi kelib tushgan taqdirda, Komissiya qaytadan nomzodlarni izlash choralari ko'radi. Ketma-ket uch marotaba nomzodlarni izlash bo'yicha tanlov e'lon qilingandan so'ng, talabgorlar soni bir nafardan oshmasa, komissiya ariza bergan nomzodni vaqtinchalik tayinlash (saylash) uchun hujjatlarini qabul qilishi mumkin.

**17.** Birinchi bosqichda Komissiya nomzodlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlar, shuningdek qo'shimcha manba va o'rganishlardan olingan ma'lumotlar asosida baholaydi, baholash natijalari hamda nomzodning arizalari (yopiq konvert) ni ochish jarayonidagi ishtiroki paytidagi qisqa fikrlari, takliflari va rejalaridan kelib chiqib, nomzodlar ichidan ikkinchi bosqichga nomzodlar saralab olinadi.

Shu bilan birga, nomzodlar Komissiya tomonidan Bank Kuzatuv kengashining aloqdor qo'mitasi bilan kelishib olinishi ta'minlanadi.

**18.** Tanlovning **ikkinchi bosqichida** Komissiya tomonidan taqdim etilgan, shuningdek, qo'shimcha manbalardan olingan ma'lumotlar (zarurat bo'lsa nomzodlar bilan dastlabki suhbat) asosida baholash amalga oshiriladi.

**19.** Komissiya nomzodlarning quyidagi hususiyatlarini baholaydi:

kasbiy bilim-ko'nikmalarini;

ish tajribasini;

manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini;

nomzodning yoki davlat ishtirokidagi korxonaning manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday holatlarni.

Nomzodlar ishchanlik obro'si, tajriba, bilim va ko'nikmalar, mustaqil mulohaza yuritish, vaqtining yetarliligi mezonlariga muvofiq bo'lishi lozim.

**20.** Baholash natijalariga ko'ra, Komissiya bo'sh rahbarlik lavozimlari uchun nomzodlar ichidan saralash asosida qisqa ro'yxatni (short list) tuzilgan holda, Komissiya bayonnomasi rasmiylashtiriladi. Saralash jarayonida nomzodlarning eng yuqori ball to'plaganligi, salbiy xulosalar yo'qligi, tanlov shartlari va nomzodlarga qo'yilgan talablarga mos kelishi inobatga olinadi.

Tuzilgan qisqa ro'yxatda har bir bo'sh rahbarlik lavozimlariga nomzodlar soni 3 kishidan oshmasligi kerak.

Bayonnomada ko'rsatilgan nomzodlar tanlovning uchinchi bosqichiga o'tkaziladi va Qo'mitaga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

**21.** Tanlovning **uchinchi bosqichida** nomzodlar Qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi va zaruratdan kelib chiqib nomzodlar bilan suhbat o'tkazilishi mumkin.

Qo'mita tomonidan suhbat o'tkazilganda, suhbat jarayoni mazkur Nizomning **2-ilovasiga muvofiq** shakllantirilgan mezonlardan kelib chiqib o'tkaziladi.

22. Komissiya kotibi tomonidan nomzodlar Qo'mita majlisi bo'lib o'tishi belgilangan kundan kamida ikki ish kuni oldin nomzodlarning aloqa raqamlariga qo'ng'iroq qilish yoki elektron pochta orqali xabarnoma (xat) yuborish orqali xabardor qilinadi.

23. Nomzodlarni tanlashda sohada faoliyat yurituvchi xorijiy korxonalar va xalqaro tashkilotlarda ish tajribasiga ega bo'lgan, ilmiy natijalar qayd etgan nomzodlarga ustunlik beriladi.

24. Qo'mita muhokamasida nomzodlar bilan suhbat tomonlar kelishuviga ko'ra axborot texnologiyalaridan foydalangan holda videokonferensiya aloqasi orqali o'tkazilishi ham mumkin.

Qo'mita tavsiyalariga muvofiq, eng yuqori ball to'plagan nomzodlarning qisqa ro'yxati (short list)ga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

25. Qo'mita baholash natijalariga ko'ra, eng yuqori natijaga erishgan nomzodlar qisqa ro'yxati (short list)dan har bir bo'sh rahbarlik lavozimlariga eng munosib bitta nomzodni tanlash to'g'risida qaror qabul qiladi va tayinlash (saylash) uchun Kuzatuv kengashiga kiritadi.

26. Mazkur Nizomda belgilangan muddatda nomzodlardan yoki nomzodlarni izlash bilan shug'ullanadigan tashkilotlardan yetarlicha takliflar kelib tushmasa, Komissiya bu to'g'risida ikki ish kuni ichida bank boshqaruvi va Qo'mitani xabardor qilishi shart.

Ushbu holatda Komissiya tomonidan nomzodlar mazkur Nizom talablariga asosan saralab olinguniga qadar bank Kuzatuv kengashi bank boshqaruvi va Qo'mita tavsiyalariga muvofiq mavjud kadrlar zaxirasidan ma'qul keladigan nomzodlarni mustaqil ravishda tanlab olishi mumkin.

27. Zaruratdan kelib chiqib bankning rahbarlik lavozimlari uchun tanlov bankning rasmiy veb-sayti va qonunchilikda ta'qiqlanmagan maxsus saytlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

### **3-§. Nomzodlarni tegishli organlar bilan kelishish va lavozimga tayinlash (saylash)ni tashkil qilish tartibi**

28. Ushbu Nizomga asosan Qo'mitaning ijobiy xulosasi berilgan nomzodlar haqidagi ma'lumotlar Bank Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

29. Tanlovning **to'rtinchi bosqichida** Bank Kuzatuv kengashi nomzodlarning ma'lumotlari ko'rib chiqadi.

30. Nomzod Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanib, vakolatli davlat organlari bilan belgilangan tartibda kelishilgandan so'ng lavozimga kirishadi va shartnoma bank Ustavi yoki Kuzatuv kengashi qarorida belgilangan vakolatli shaxs bilan tuziladi.

### **4-§. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar**

31. Quyidagi shaxslar nomzod bo'la olmaydi:

oliy ma'lumoti bo'lmagan shaxslar;

oldingi mehnat faoliyatida, nomzodning aybi bilan litsenziya talablari va shartlari buzilganligi sababli, ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyani bekor qilish paytida bunday shaxslar yakka ijroiya organi vazifasini bajarayotgan bo'lsa, yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirsam yoki yuridik shaxs ta'sischiylari hisoblansa va bunday litsenziyani bekor qilgandan uch yildan kam vaqt o'tgan bo'lsa;

jinoyat sodir etganligi sababli sudlanganlik holati tugallanmagan bo'lsa, shuningdek, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestriga kiritilgan bo'lsa;

sud hukmiga binoan muayyan lavozimda ishlash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilingan shaxs;

bankrot deb topilgan paytda yuridik shaxsning yakka ijroiya organ vazifasini bajargan yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirgan bo'lsa va uni bankrot deb topgan paytdan hali ikki yil o'tmagan bo'lsa.

#### **5-§. Yakuniy qoidalar**

**32.** Nomzodlar taqdim etgan ma'lumotlarining to'liqligi va to'g'riligi uchun mas'ul hisoblanadi.

**33.** Mazkur Nizom ijrosini tashkil etish hamda ijrosi ustidan nazorat Bank boshqaruvi zimmasiga yuklanadi va ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**Xodimlarni boshqarish  
departamenti direktori**

**M. Inomjonova**

*O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki  
boshqaruvi a'zolari va muayyan tarkibiy bo'linmalari rahbarlik  
lavozimlariga nomzodlarni tanlab olish tartibi to'g'risidagi Nizomga  
1-ilova*

**Bankning rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi  
SXEMASI**

| <b>Jarayon<br/>ketma-ketligi</b> | <b>Mas'ullar</b>      | <b>Tadbirlar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | <b>Muddat</b>                                                                         |
|----------------------------------|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| Birinchi                         | Komisiya kotibi       | Bankning rahbarlik lavozimlari uchun tegishli tarkibiy bo'linmalar va Tayinlash qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Qo'mita), shuningdek, zaruratdan kelib chiqib aloqador tashkilotlar bilan hamkorlikda nomzodlarni izlash vositalari orqali e'lon berish.                                                                                                                                                                     | <b>Tanlov e'lon qilish haida<br/>Qo'mita ko'rsatmasidan<br/>so'ng besh ish kunida</b> |
| Ikkinchi                         | Komissiya kotibi      | Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodning arizalari kelib tushgandan so'ng ularning hujjatlar to'plami Nizom talablari asosida shakllantiriladi.<br>Dastlab, Komissiya kotibi nomzodlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlar, shuningdek, qo'shimcha manba va o'rganishlardan olingan ma'lumotlar asosida o'rganadi.<br>Dastlabki o'rganish natijalarini Komissiya a'zolariga ko'rib chiqish uchun kiritadi. | <b>Kelishilgan muddatda</b>                                                           |
| Uchinchi                         | Komissiya<br>a'zolari | Nomzodlar haqida Komissiya kotibi tomonidan to'plangan dastlabki ma'lumotlar va hujjatlar to'plamiga asosan nomzodlar baholashdan o'tkaziladi.<br>Baholash natijalariga ko'ra nomzodlarni tanlovning ikkinchi bosqichiga o'tkazish yoki uni rad qilish haqida xulosaga kelinadi.                                                                                                                                             | <b>Besh ish kuni ichida</b>                                                           |
| To'rtinchi                       | Komissiya kotibi      | Komissiya a'zolari tomonidan imzolangan bayonnomaning qaroridan kelib chiqib, hujjatlarni Qo'mitaga ko'rib chiqish uchun kiritish.                                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>Bayonnoma imzolangandan<br/>so'ng 3 ish kunida</b>                                 |
| Beshinchi                        | Qo'mita               | Hujjatlarni qabul qilish va nomzodlar haqida yakuniy qaror qabul qilish choralari ko'rish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | <b>Kelishilgan muddatda</b>                                                           |

*O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq  
banki boshqaruvi a'zolari va muayyan tarkibiy  
bo'linmalari rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni  
tanlab olish tartibi to'g'risidagi Nizomga  
2-ilova*

**Bankning rahbarlik lavozimlari uchun hujjat  
taqdim etgan nomzodlarni suhbatdan o'tkazish  
MEZONLARI**

Nomzodlar bilan suhbat jarayoni Nomzodlarni saralash va tanlab olish komissiyasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi:

- I. Sohaga oid bilim va ko'nikmalari;**
- II. Normativ-huquqiy hujjatlardan xabardorlik darajasi;**
- III. Mehnat faoliyati, faoliyati davomida erishgan yutuqlari;**
- I. Sohaga oid bilim va ko'nikmalari.**

Mazkur yo'nalish bo'yicha nomzodlar tavakkalchiliklarni boshqarish, ichki nazorat va komplayens nazorat, bank aktivlari va passivlarini (g'aznachilikni) boshqarish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollari tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlardan xabardorligi, iqtisodiyot sohasining bank-moliya tarmog'ida amalga oshirilayotgan islohotlardan, bankning rivojlanish strategiyasidan xabardorlik darajasi, ilmiy yutuqlarining mavjudligi, tadbirkorlikni rivojlantirish va tahlil qilish ko'nikmasi hamda boshqa salohiyatlari sinovdan o'tkaziladi.

**II. Normativ-huquqiy hujjatlardan xabardorlik darajasi.**

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlardan, jumladan, bank faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlaridan xabardorlik salohiyati.

Shu bilan birga, bank va bank faoliyatiga oid xorijiy qonunchilik tajribasidan xabardorligi va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalari sinovdan o'tkaziladi.

**III. Mehnat faoliyati, faoliyati davomida erishgan yutuqlari.**

Mazkur yo'nalishda nomzodlar oldingi mehnat faoliyatida, nomzodning aybi bilan litsenziya talablari va shartlari buzilganligi sababli, ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyani bekor qilish paytida bunday shaxslar yakka ijroiya organi vazifasini bajarayotgan bo'lsa yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirsam yoxud yuridik shaxs ta'sischilari hisoblansa va bunday litsenziyani bekor qilgandan uch yildan kam vaqt o'tgan bo'lsa, jinoyat sodir etganligi sababli sudlanganlik holati tugallanmagan bo'lsa, shuningdek, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestriga kiritilgan bo'lsa, sud hukmiga binoan muayyan lavozimda ishlash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilingan shaxs, bankrot deb topilgan paytda yuridik shaxsning yakka ijroiya organ vazifasini bajargan yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirgan bo'lsa va uni bankrot deb topgan paytdan hali ikki yil o'tmagan bo'lsa, nomzodlar rad etiladi.

Shuningdek, xodimning mehnat faoliyati, erishgan yutuqlari va loyihalari, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.